

O'ZBEK ADABIYOTIDAGI MOHIR HIKOYANAVIS*Ismoilova Fotima Baxriddinovna**Samarqand shahar 81-maktab, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida hikoya deb atalmish janr o'zining o'quvchilariga ega. Hikoya janri o'zining shaklan ixchamligi, kompozitsion qurilishi, tili, uslubi jihatidan o'ziga xoslikka ega. Ana shunday janrning mohir ustalaridan biri yozuvchi Xurshid Do'stmuhammaddir. Adib yaratgan asarlarda qahramon holati bilan o'quvchining ruhiy olami birlashadi, asardagi voqealar ko'z oldida gavalangandek bo'ladi go'yo.

Kalit so'zlar: ramz, N.G.Chernishevskiy, badiiy bunyodkorlik, "Jajman", badiiy psixologizm, nazira, hikoya yozish qonun-qoidalari.

Bugungi kun o'zbek nasrida, hikoyanavislik borasida bir qator yozuvchilar qatorida Xurshid Do'stmuhammad ham o'zining munosib o'rniga egadir. U o'z uslubiga, betakror tiliga ega ekanligini hozirda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi, asarlarini sevib, zavq bilan mutolaa qilishadi. Adabiy tanqidchilikda ham uning asarlari haqida ijobiy fikrlar bildirilmoqda, anjumanlarda bahs–munozaralarga sabab bo'lyapti. Adib asarlarining badiiy xususiyatlari xususida ko'plab ijobiy fikrlar bildirish mumkin. X.Do'stmuhammad uslubining o'ziga xosligi, qahramonlarining hayotiyliigi uning asarlarini o'qishliligi va yuqori saviyadaligining asosiy omillaridan biri deb ayta olamiz. X.Do'stmuhammad ijodida hikoyalarning o'rni alohida, o'ziga xos bo'lib, muallif hikoyalaridagi obrazlar real voqelikda harakatlanayotgan, ayni damda biz bilan yashayotgan insonlardir. Aynan yozuvchining mahorati ham ana shu qahramonlarni yaratishda, ramzlardan mohirona foydalana olishidadir. Yozuvchining yaratgan asarlari to'g'risidagi har bir qarash uning so'zni to'g'ri va obrazli qo'llay olish mahoratidan dalolat beradi. Xurshid Do'stmuhammad yaratgan asarlarida to'g'ridan–to'g'ri tasvirga o'tib, ortiqcha tavsilga o'rin qoldirmaydi. O'quvchi ham qisqa satrlardan oq muallifning ko'zlagan maqsadini, aytmoqchi bo'lgan fikrlarini darrov ilg'ay oladi. Bu esa o'quvchining asardan zerikishini oldini oladi. Buyuk rus adabiy tanqidchisi N.G.Chernishevskiy ta'kidlaganidek, "...agar asarda tasvirdan ko'ra tavsif cho'zilib ketsa, bu mahorat belgisi emas. Aniq, badiiy bunyodkorlik badiiy asar tilining birinchi belgisidir". X.Do'stmuhammad ijodida bu yetakchi, o'ziga xos xususiyat sanaladi.

"Yozuvchi qahramonlar taqdirini, hayotdagi chigalliklarni shunchaki ifoda etish bilan cheklanmaydi, balki hayotning ma'nosini chaqishga intiladi". Ushbu ta'rif adabiy tanqidchi Umarali Normatov tomonidan yozuvchi P.Qodirovga nisbatan bildirilgan bo'lishiga qaramay, u bizning nazarimizda, X.Do'stmuhammad ijodiga ham taalluqliligi bilan ahamiyatli deyish mumkin. Sababi, yozuvchi X.Do'stmuhammad ijodida ham

qahramonlar masalasi shunchaki, yuzaki tasvirlanmaydi. U ramzlardan foydalanib qahramonlarning ruhiy holatini ochishga va bu orqali hayotning ma'nosini chaqishga intiladi.

Bugungi kunda majoziy obrazlar hikoyanavislikda o'z o'rniga ega. Ana shunday hikoyalarni yozuvchining asarlarida ham kuzatish mumkin. Har qanday yozuvchining ham iste'dodi uning qancha asar yozgani—yu, qancha ijod qilgani bilan emas, balki, badiiy tafakkurga qanday o'zgarishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta'sir o'tkazgani, mushtariylarini qanday qilib o'ziga "ipsiz" bog'lagani bilan o'lchanadi. X.Do'stmuhammad ham, shaksiz, shunday yangi jarayonning faollari, adabiyotimizning keyingi avlodlari orasida jadal o'sib kelayotgan ijodkor yozuvchilaridan sanaladi. Adib misolida adabiyotimizning bir joyda turg'un emasligi, o'z qonuniyati bo'yicha o'sib, taraqqiy topib borishiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. Shuning uchun ham yozuvchining yaratgan har bir qahramonidan insonlar o'zi uchun nimadir yoki qaysidir ma'noni olishga intiladi. Sababi yozuvchi badiiy asoslashdan va bu boradagi badiiy detallardan juda o'rinli foydalanadi. Bu esa kitobxonlarda real hayotdagi kimsalarni ko'rib turgandek tasavvurni hosil qiladi. Yozuvchi hayotning turli qizg'in jabhalari haqida va turli toifa vakillarini qahramon qilib hikoyalar yaratgan. Hikoyadagi har bir qahramon o'z muhiti uchun, o'z sohasi va o'z yaqinlari va kitobxon uchun haqiqiy qahramonligicha qoladi. Bu yozuvchining ko'pchilik asarlari qatori hikoyalari ham uning bolaligi o'tgan muhitga, davrga borib ham bog'lanadi yoki umumiy holatda o'zbek xalqining bosib o'tgan hayot yo'lining yaqqol isboti sifatida ham tasavvur uyg'otadi. Shunga ko'ra adibning hikoyalarida yaratilgan o'zbekona xarakter, ularning o'zbek hikoyachiligidagi o'rni va o'ziga yuklatilgan vazifaning qay darajada bajarishiga qarab ham o'z o'quvchilarini topa oladi, shuningdek, shubhasiz, juda katta ma'naviy—estetik ozuqa oladilar. Xurshid Do'stmuhammad kishilardagi salbiy va xunuk illatlarni yanada teranroq ochib berish uchun ham "Jajman" hikoyasida "inson"ga emas, balki hayvon obraziga murojaat qildi. Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasi yakunida bir qarich Jajman o'rniga ikki qarich Jajmanning tushishi va hikoyaning shu yerda tugatilishi orqali yechim ochiq holda qoldirilib, kitobxon xulosasiga havola etiladi va bu hikoyaning muvaffaqiyati, muallifning yutug'i hisoblanadi. Chunki asardagi aynan muammoli vaziyatlar va ularning o'ziga xos yechimlari kitobxon ruhiyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsata oladi. Xurshid Do'stmuhammad ijodida o'zbek hikoyachiligida nazira sifatida bitilgan birinchi asar deya e'tirof etilayotgan "Jimjitxonaga yo'l" asari ilk nazira bo'lishi bilan birgalikda, italiyalik adib Dino Butsatting "Yetti qavat" asari tarjimasiga qilingan badiiy ilova hamdir. Bu hikoya g'amgin ohangda yozilsa—da, lekin qahramon ruhiyati tasviri mahorat va katta ijodkorlik bilan tasvirlangan. Bunday tasvir ko'zga tashlangan ijod namunalari o'z—o'zidan kitobxonlarga manzur bo'lishi shubhasiz. Umuman, ijodkor asarlari ham kelajak avlod uchun ham ma'naviy ozuqa berish quvvatiga egaligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Xurshid Do'stmuhammad

hikoyachilikni yangi bir pog'onaga olib chiqqan adiblardan biri hisoblanadi. U voqelikni ko'p tarmoqli syujet yaratish bilan tahlillaydi. Shuni alohida aytish joizki, istiqlol davrida adib izlanishlari bilan yangi bir, o'ziga xos hikoyachilik sahifasini ochib berganligini guvohi bo'lib turibmiz. Bular nimalarda o'z aksini topadi? Avvalo, qahramon ruhiyatini ishonarli va har tomonlama puxta tahlil qilganligidadir. Sababi Xurshid Do'stmuhammadning o'zi hikoya janri qonun-qoidalari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada hikoyachilikning XX asr 80-yillaridagi ahvoliga nazar tashlanadi, mulohaza qilinadi, fikrlar bildiriladi. Masalan, o'zining keyingi yillarda yaratayotgan hikoyalarda – undagi mavzular rang-barangligi o'sha yuqorida alohida ta'kidlaganimdek, inson ruhiyatini tahlil qilishda ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xurshid Do'stmuhammad o'zi yaratgan obrazlarning ruhiyatini o'zining ruhiyatidan olib yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki muallif yaratayotgan obrazining fe'l-atvoriga xos asosiy xususiyatlarni o'zining xarakteristikasidan oladi. Xurshid Do'stmuhammad barcha asarlarini hayotiy voqealar asosiga quradi va shuning uchun ham muallif xarakteristikasi zamiriga qurilgan obrazlarining badiiy psixologizmi o'quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur uyg'otadi. Ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi aslo mumkin emas. Shunday ekan, Xurshid Do'stmuhammad yaratgan asarlarning barchasi uning ongida yetilgan ijod mahsuli va bu esa asarlardagi personajlarning insonlarga yanada yaqinligini ta'minlaydi va o'qishligini oshiradi. Chunki inson ko'ngliga yo'l topishda ruhiyat birinchi vosita hisoblanadi. Xurshid Do'stmuhammad esa aynan ruhiyat masalasini asarlaridagi birinchi galdagi vazifa sanaydi. Va bunda esa o'z-o'zidan yozuvchining mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, yozuvchi ramzlardan qahramonlar psixologiyasini yoritib berishda unumli va mohirona foydalana oladi.

Yosh qalamkashning XX asr 80-yillarida nashr etilgan dastlabki hikoyalarga bildirilgan fikrlardan o'zbek adabiyotiga iqtidorli ijodkor kirib kelayotganidan adabiyot ixlosmandlari xabardor bo'lgandi.

“Xurshidning hikoyalari boshlovchi qalamkashning mashqlaridan farq qiladi. Uning hikoyalarda fikr va falsafa bor. Tasvirda buyoqlar tanlash, so'z axtarish, jumalarga sayqal berish, personajlar tili ustida ishlash, xullas, puxta badiiyatga intilish seziladi. Muallif ziyraklik va zukkolik bilan hayotni kuzatadi, inson qalbiga quloq tutadi. Shu boisdan uning hikoyalarda his-hayojon, ehtiros bor. Bu – badiiyatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi”¹.

Yozuvchi ijodini nozik kuzatish holatlari bo'rtiriB turibdi. Har bir kitobxon o'quvchi yozuvchining kelajagini anglashi mumkindek taassurot uyg'ota oladi.

¹ Ёшлик. 1986. 4-сон. 26-27-betlar.

Ayniqsa, yozuvchining bugungi ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanish kitob muxlislari bu holatni yanada teranroq tushunib yetishlari mumkin.

Xulosa qilsak, yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad bir qator hikoyalardan tashqari qissalari, romanlari bilan o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallab turgan yozuvchilardandir. Ammo yozuvchi tomonidan yaratilgan epik turning eng kichik va hozirjavob janri bo'lgan hikoyalarning o'zi ham ijodkorni xalq yozuvchisi degan sharafli mavqega ko'tara oldi. Yozuvchi hikoyalarni qissalaridan, qissalarini hikoyalardan yoxud romanlarini har ikki janrdan ustun yoki quyi darajada deb bo'lmaydi. U epik turning har uchala janrida bir xil martabaga ega bo'lgan birdan bir ijodkordir. Bunaqasi adabiyotda kamdan kam uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Т.: Маънавият, 2000. –72 бет.
2. Норматов У. Давр ва шахс зиддиятлари. – “Ўзбекистон адбиёти ва санъати”, 1989, 24 март, №13
3. Do'stmuhammad X. Ijod – ko'ngil munavvarligi. –Т.: Mumtoz so'z. 2011. 315 b.
4. Do'stmuhammad X. Izhor. T.Yangi asr avlodi. 2021.
5. Mustaqillik davri adabiyoti. Ilmiy to'plam. –Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2006. 287